



SPECIFIC FEATURES OF ORGANIZING MILITARY TRAINING SESSIONS

Kayumov Jasur Khabibilloevich

Senior Lecturer of the Department of General Tactics

University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan

Annotation: *This article discusses the specific features of organizing military training sessions. It analyzes the planning of lessons in the military education process, the effective organization of learning activities, and the monitoring of their implementation. The study also highlights the importance of methodological approaches, interactive and practical training sessions in military preparation, as well as their role in developing students' knowledge, skills, and competencies. It is substantiated that applying pedagogical and organizational principles in military training sessions can improve the effectiveness of education and strengthen students' level of military preparedness.*

Keywords: *military education, organization of lessons, learning process, methodological approaches, interactive training, practical training, students' competencies, educational effectiveness.*

Mamlakatimizda boshqa sohalarda bo'lganida singari harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ofitser kadrlarga qo'yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofitser faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson, o'z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o'z bo'ysunuvchilariga tarbiya va ta'lim bera oladigan pedagog bo'lishi zarur. [1]

Talaba kursantlarning o'zlashtirish jarayonidagi faoliyatlari bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdan iborat bo'lib, ta'lim jarayoni esa tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi.

Harbiy mashg'ulotlar nazariy, amaliy, ko'rgazmali, taktik, taktik saf, nazorat shakllarida o'qitilishi va ularning aksariyat qismi amaliy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari Nizomlarining talablari asosida olib borilishi, otish tayyorgarliklari bo'yicha mashg'ulotlari o'quv va jangovor qurollar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma va yo'riqnomalarga amal qilinishi, mashg'ulotlarning aksariyat qismi, o'quv-moddiy baza bilan chambarchas bog'liqligi, harbiy ta'lim mashg'ulotlarining o'ziga xos tomonlari bo'lib hisoblanadi. [2]

Mashg'ulot rahbarining harbiycha mashg'ulotlarning o'ziga hos prinsiplaridan og'ishmagan holda o'z faoliyatiga tanqidiy qarashi, ta'lim berishning ilg'or yangi uslublarini qo'llashda orttirilgan tajribalarga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



Harbiy ta'limni o'qitilishi jarayoni o'ziga hos mantiqiy ketma-ketlik bilan aniq maqsadga yo'naltirish bilan amalga oshiriladi. Ketma-ketlik quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi ko'zda tutiladi: mashg'ulotning maqsadidan kelib chiqib, kursantlar oldiga topshiriq qo'yish; mashg'ulotni o'tkazilishida kursantlarda bilimga bo'lgan qiziqishni hosil qilishga yo'naltirish; mashg'ulot davomida kursantlar tomonidan yangi materialni qabul qilinishining murakkab bo'lmagan usullaridan foydalanish; qabul qilingan yangi materialni tahlil qilish, umumlashtirish; ilmiy tushunchalarni hosil qilish; egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish; malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash; kursantlar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish; ta'lim berish natijalarini tahlil qilish. [3]

Harbiy ta'limni tashkillashtirishda bu ketma-ketlikda o'qitishni, harbiy pedagogik jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan harbiy tayyorgarlik va tarbiyani o'z ichiga olgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Harbiy tayyorgarlik deganda askarlarga amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan harbiy bilim, mahorat va ko'nikmalarni berishning uyushgan va maqsadli jarayoni, shuningdek jangovar harakatlarni o'tkazish (jangovar vazifalarni bajarish) uchun harbiy jamoalarni tayyorlash tushuniladi.

Harbiy pedagogik jarayonning mohiyati komandirlarning zamonaviy urush sharoitida jangovar operatsiyalarni muvaffaqiyatli o'tkazish (jangovar vazifalarni bajarish) uchun harbiy mutaxassislar, bo'linmalar va jamoalarni tayyorlash bo'yicha maqsadli tashkiliy va ma'rifiy faoliyatidan iborat. Harbiy yo'nalish, askarlarning o'ziga xos mehnat va yashash sharoitlari harbiy pedagogik jarayonning mazmuni, metodologiyasiga qat'iy ta'sir qiladi, uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. [4]

Harbiy pedagogik jarayonning dolzarbligi va muhim xususiyati shundan iboratki, u harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati bilan ajralmas birlikda amalga oshiriladi va aniq amaliy xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. [5] Harbiy xizmatchilar tomonidan o'quv jarayonida olingan bilim, mahorat va ko'nikmalar jangovar harakatlarda jangovar topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladi. Bu, bir tomondan, harbiy xizmatchilardan yuqori bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatlarini talab qiladi, boshqa tomondan - jangovar va safarbarlik tayyorgarligini mustahkamlash, saqlashga va rivojlantirishga yordam beradi. [6]

Harbiy pedagogik jarayon-bu harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni jangovar vazifalarni bajarish uchun qo'llanilashga mo'ljallangan harakatlarga tayyorlash bo'yicha nafaqat komandirlar, baki, o'quv tuzilmalari mutaxassislarining maqsadli, uyushgan ta'lim faoliyati tizimidir.

Tinchlik davrida, harbiy-pedagogik jarayonning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilar va bo'linmalarining yuqori jangovar tayyorgarligini saqlash, ularning jangovar tayyorgarlik vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun munosib ravishda tayyorlashdan iborat. [7]



Bo'lajak ofitserlarni va harbiy jamoalarni tayyorlash, harbiy qismlar va bo'linmalarning jangovar tayyorgarligini oshirishda ofitserlarning, komandir va tarbiyachilarning harbiy-pedagogik bilimlari darajasiga qo'yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Shu bilan birga harbiy pedagogikaning vazifalari doirasi ham kengayib bormoqda. [8]

Harbiy pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

harbiy-pedagogik jarayonning mohiyati, xususiyatlari va qonuniyatlarini va uning tarkibiy qismlari bo'lmish ta'lim, tarbiya, ruhiy tayyorgarlik, rivojlanish, mustaqil tarbiya, mustaqil ta'lim olish jarayonlarini o'rganish;

jamiyatda va Qurolli Kuchlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar asosida, shuningdek jangovar texnika va qurol-yarog'ning takomillashuvi, jangni olib borish usullari, shaxsiy tarkibdagi miqdor va sifat o'zgarishlari, jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish vazifalaridan kelib chiqib ta'lim va tarbiya prinsiplarini aniqlash, shakllari va metodlarini rivojlantirib, takomillashtirib borish;

turli toifadagi harbiy xizmatchilar bilan turli sharoitlarda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta'lim va tarbiya prinsiplari talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlarini aniqlash va asoslash;

qo'shin turlarining, turli ixtisoslikdagi harbiy mutaxassislarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta'lim va tarbiya metodlari tizimini ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish shakllarini takomillashtirish va rivojlantirish, askarlar va harbiy jamoalar ta'limi va tarbiyasi darajasini aniqlash, tekshirish va baholashning samarali yo'llarini tadqiq qilish;

harbiy-pedagogik jarayonning rivojini bashorat qilish rejalashtirish;

didaktik tadqiqotlarning markaziy muammosi sifatida askarlar bilish faoliyatini faollashtirish, alohida olingan askarlar va harbiy jamoalarning yuksak harbiy-professional tayyorgarlik darajasiga ega bo'lish vaqtini qisqartirish yo'llarini, usullarini va vositalarini izlash va ularni qo'llash;

harbiy jamoalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonida ularni hisobga olish;

jangovar tayyorgarlik va harbiy intizomni, askarlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishish yo'llarini o'rganish;

harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar o'rtasida musobaqa tashkil etishning pedagogik shartlarini aniqlash;

jamoani jipslashtirish, unda nizom talablariga xos o'zaro munosabatlarni, sog'lom ruhiy muhit va ijtimoiy fikrni shakllantirish metodlarini o'rganish va boshqalar. [1]

Xulosa sifatida shuni shuni aytishimiz mumkinki, harbiy pedagogik jarayonda tashkillashtiriladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon zamonaviy ta'lim jarayonidan o'zining hosligi bilan tubdan farq qiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'lim-tarbiya jarayoni va o'quv-moddiy bazaning shakllantirilishi va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llanilishi



faqatgina harbiy pedagogikaga mosligi va hosligi bilan umumiy pedagogikadan ajralib turadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Satibaldiyev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: 2004.
2. Добродон Е.В. Современная военная педагогика: проблемы и перспективы / Вестник Донецкого педагогического института. 2018. - С.122.
3. Ширли В. Военная психология и педагогика / Под ред. В. Ф. Кулакова. М.: Совершенство, 1998. 140 с.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. — Москва: Педагогика, 1989.
5. Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". Toshkent:" Fan"- 2006.
6. Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". Toshkent. "Fan"- 2005.
7. Tursunov I., Nishonaliyev U. "Pedagogika kursi". Toshkent: "Pedagog -1997.
8. Farberman B. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" Toshkent: "Fan" - 2000.